

QUR'ONI KARIM VA SUNNATDA NOVERBAL VOSITALAR

Muydinov Pahlavon Qahramonovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya: Albatta noverbal vositalar Qur'oni Karimda va sunnati nabaviyda bir nechta o'rinlarda kelgan. Qur'oni Karim arab tilining o'ziga xos jozibasini tana tilini ifoda etgan o'rinlarda balog'iy uslublarda bayon qiladi. Arab tilidagi "aytmoq" ma'noli so'zning "ishora qilmoq" ma'nosini ushbu maqola tushuntiradi.

Kalit so'zlar: Tana tili, Qur'oni Karim, bayon, sura, noverbal, muloqot.

NOVERBAL MEANS IN THE HOLY QUR'AN AND SUNNA

Abstract: Of course, nonverbalism occurs in several places in the Qur'an and the Sunnah of the Prophet. The Qur'an describes the specific charm of the Arabic language in a mature manner in places where the body language is expressed. This article explains the meaning of the Arabic word "to say".

Key words: Body language, Quran, statement, sura, nonverbal, communication.

Qur'oni Karim oyatlariga diqqat bilan nazar tashlagan kishi aniq biladi-ki, Qur'oni Karim tana tilini ifodalaydigan istilohlarning ko'pini ishlatgan. Doktor Mahdiy Aror aytadi: "O'quvchi aziz kitobda ma'no ifodalaydigan tana harakatlarini vasf qiladigan bir necha oyatlarga ro'baro' keladi. U harakati ma'noni vasflaydigan yo'llardan bir yo'l bo'lishi mumkin"⁵⁴.

Ushbu mavzuga dalil bo'ladigan bir necha oyatlarni keltiramiz:

1. "Ye, ich va ko'zing quvonsin. Bas, biror odamni ko'rar bo'lsang: "Men Rohmanga ro'za nazr qildim. Bugun inson zotiga zinhor gapirmasman" degin. Bas, uni ko'tarib qavmiga olib keldi. Ular: "Ey, Maryam, sen ajoyib narsa keltirding-ku! Ey, Xorun singlisi, otang yomon odammas va onang ham buzuq bo'lmagan edi-ku!" dedilar. Bas, u unga ishora qildi. Ular: "Beshikdagi go'dak ila qanday gaplashamiz?!" dedilar" (Maryam 26-29)

Mana bu oyatda Maryam a.s ga "men Rohmanga bugun ro'zani nazr qildim, bas hech kim bilan gaplashmasman" deb ayt "kabi xitob bo'lmoqda. Bu yerdagi e'tiborga molik bo'lgan daqiq holatlar haqida gapirishdan oldin masalaga biroz oydinlik kiritamiz. Islom dinida ro'za deyilsa kunning muayyan muddati oralig'ida taom va sharobdan va ma'lum holatlardan saqlanishlik tushuniladi. Maryam a.s ning ro'zalari qanday edi? Nega gapirmayman deyaptilar? Bu gapirishlikdan tutilgan ro'za edi. Maryam a.s farzandlari Iso a.s ni dunyoga keltirganlaridan keyin ularni ko'tarib qavmiga keladilar. "U bilan qavmiga uni ko'tarib keldi" ya'ni go'dakni ko'tarib keldilar. "Ey, Xorun singlisi, otang yomon odammas va onang ham buzuq bo'lmagan edi-ku!" dedilar". Maryam a.s qavmdan ketishlaridan oldin ularning obro'lari, hurmatlari yuksak edi. Qavm umuman bu ayoldan kutmaydigan ish bilan qavmga qaytib keldi. Tabiiyki, ushbu holat bu ayolning sha'niga har xil turdagi gumonlarni keltirib chiqaradi. Birdan g'oyib bo'lib qolgan hudojo'y bir qiz ma'lum muddatdan keyin

⁵⁴ عرار، مهدي أسعد: البيان بلا لسان، ط1، بيروت، دار الكتب العلمية، 2007م

chaqaloq ko'tarib kelsa har qanday inson ham uni so'roqlashi turgan gap edi. Shunday qiyin vaziyatda mushkul ahvolda qoladigan Maryam a.s ga Alloh taolo “ *Bas, biror odamni ko'rar bo'lsang: Men Rohmanga ro'za nazr qildim. Bugun inson zotiga zinhor gapirmasman* ” degin” deya amr qildi. Demak bu ro'za inson zoti bilan gaplashmaslik uchun nazr qilingan ro'za edi. Bundan murod shuki, ularning shariatida agar ro'za tutsalar ularga taom va kalom harom bo'lar edi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Agar Maryam a.s insonlar bilan gaplashmalikka ro'za nazr qilgan bo'lsalar nega agar biror inson zotini ko'rib qolsalar bugun ro'za turganlarini va gaplashmasliklarini aytish buyurilyapti. Axir ro'za bo'lsalar mana shu muddaolarini ham ifoda etishdan ham ro'zalari man etadi. Arab tilida “aytmoq, demoq “ **قول – قال** deya tarjima qilinadi va oyatda ham ushbu so'z vorid bo'lgan. Arab tilida **قول** so'zining bir nechta ma'nolari bor. Masalan, e'tiqod ma'nosida keladi. Agar “ **بِقَوْلِ أَبِي حَنِيفَةَ** ” deb aytadign bo'lsak buning ma'nosi “ **Abu Hanifaning e'tiqodiga ko'ra** ” deb tushunamiz. Va, harakati ma'nosida ham ishlatiladi. Agar arablar “ **قَالَ بِرَأْسِهِ هَكَذَا** ” deb boshini qimirlatsa uning ma'nosi “ **mana bunday qilib meni suzdi** ” deb tushuniladi. Yoki, “ **قَالَ عَلِيٌّ الْمَاءَ** ” deyilsa “ **menga suv to'kdi** ” ma'nosi tushuniladi. Demak, oyatni taammul qiladigan bo'lsak, Maryam a.s ga amr bo'layotgan so'zni “ **فَقُولِي** ” biz aslida “ **de, ayt** ” deb emas balki “ **ishora qil** ” deb tushunishimiz kerak bo'ladi. Ya'ni, qavmingga ro'za ekanligingi qanday ishora bilan tushunsalar shunday ishora qil ma'nosida anglashimiz kerak. Sababi, u ro'za edi. Agar gapirsa uning ro'zadorligidan ma'no bo'lmas edi. Agar yo'lidan chiqqan hammaga ro'za ekanligini gapirib tushuntirsa ro'zadorlik qayerda qoladi. Arablar **قول** so'zini hamma harakatlardan iborat deyishgan.

Ibn Javziy “ **فَأَشَارَتْ** ” dan murod “ **imo qildi** ” ya'ni Iso a.s ga ular bilan gaplashishga amr qilganday imo qildi deydi⁵⁵. Va yana aytiladiki, Maryam a.s qavmdagilarga ishora qiladi go'dak bilan gaplashinglar ma'nosida.

Mana shu o'rinda, Maryam a.s ning ishorasi so'z ifodalaydigan ma'noni ifoda etgan. Shuning uchun qavm u ularni go'dak bilan gaplashishga buyurayotganlarini bildi va shu sababdan ham “ **Beshikdagi go'dak ila qanday gaplashamiz?! dedilar** ”. Mana bu holat so'zsiz ham muloqot mavjudligiga dalil bo'la oladi.

2. “ **U: Ey Robbim, menga bir belgi tayinla** ” dedi. **U zot: Sening belging, uch kun odamlarga faqat ishora bilan gapirishingdir. Robbingni ko'p esla va ertayu kech tasbeh ayt!** ” dedi. “

Ushbu oyatda bir necha yildan beri farzandsiz bo'lgan payg'ambar Zakariyyo a.s Alloh taoloning Maryam a.s ga ko'rsatgan ikromidan ilhomlanib o'zlariga farzand so'rganlarida unga Yahyo ismli farzand berilajak habarini oladi. Va, o'zlarining yoshi bir joyga borgan va ayoli ham tug'mas holatga kelganini e'tirof etgan bo'lib Allohdan o'ziga bir belgi berishini so'raydi. Mana shu o'rinda Alloh taolo Zakariyyo a.s ga farzand ko'rishining belgisi o'laroq uch kun gapirmasligi habarini beradi. Mana shu uch kun muddatda Zakariyyo a.s o'z muddaolarini, bayonlarini belgilar, ishoralar, imolar bilan ifoda qiladi. Ushbu oyat ham tana tilining mavjudligiga va naqadar muhimligining misolidir.

Zamaxshariy “ **faqat belgi** ” so'zi ma'nosida “ **faqat qo'l, bosh yoki asli harakat bo'lgan boshqa a'zolar bilan ishora qilishdir** ” degan⁵⁶.

⁵⁵ بن الجوزي، عبد الرحمن بن علي: زاد المسير في علم التفسير، 9 مج، 3 ط، بيروت: المكتب الإسلامي، 1404 هـ، 228/ 35

⁵⁶ الزمخشري، أبو القاسم محمود بن عمر (ت 538 هـ): الكشاف عن حقائق التنزيل وعلوم الأقاويل في وجوه التأويل، 42

Bag'aviy : “ Ishora til, ko'z yoki qo'l bilan bo'lishi mumkin” degan⁵⁷.

Mana shu ikki oyat bilan Qur'oni Karimdagi tana tili kalitiga yetib bordik. Doktor Muhammad Al Amin aytadi:”Albatta, Qur'oni Karim bu ilmni o'rganishga loyiq bo'lgan mavzular va tushunchalar bilan boyitadi va izlanuvchilar jamlay olmaydigan darajada misollar bilan ta'minlaydi”.⁵⁸ Zamonaviy nuqtai nazardan qaralganda tana tili Qur'oni Karimda kelgan holatlardan uzoqlashmaydi.

Qur'oni Karim tana a'zolarining vasfi va inson biror shaxsga qaraganda bilishi mumkin bo'lgan ifodalarni ishlatgan. Va, shuningdek sunnati nabaviyda ham tana tilining sezilarli darajada ko'p uchratishimiz mumkin. Abu Said Al Xudriydan r.a aytadilar:”Nabiy a.s chimildiqdagi bokiradanda hayoliroq edilar. Agar yoqmaydigan narsa ko'rsalar uni ularning yuzlaridan bilar edik”⁵⁹. Darhaqiqat, sahobalar tana tilini tushunishda anchagina mohir bo'lganlar. Ular payg'ambar a.s ning yuzlaridan u zot s.a.vga nima yoqyapti yoki aksincha nima yoqmayapti bilishgan. Sababi, yuzdagi holatlar ushbu ma'lumotni aytadi. Mana bu rivoyat tana tilining zamonaviy fan emas balki avvaldan ma'lum bo'lgan ilm ekanligiga dalildir.

Yana bir hadisni misol o'laroq keltiramiz. Ushbu hadis payg'ambar a.s ning tana tilidan foydalanganligini yaqqol hikoya qiladi. Oisha r.a dan rivoyat qilinadi:” Allohning menga ne'matlaridan biri Rosululloh s.a.v mening uyimda, mening kunimda va mening quchog'imda vafot etdilar. Alloh u zotning s.a.v og'iz suvi bilan mening og'iz suvimni birlashtirdi. Shu onda Abdurrahmon qo'lida misvok bilan kirdi. Payg'ambar a.s unga qarayotganlarini ko'rdim va bildim-ki ular s.a.v misvokni yaxshi ko'radilar va “ Uni sizga olib beraymi?” dedim. **Boshlari bilan “Ha” deganday ishora qildilar.** Olib berdim. Dag'allik qildi. “ Sizga uni yumshatib beraymi?” dedim. **Boshlari bilan “Ha” deganday ishora qildilar.** Yumshatib berdim. Oldilarida bir idishda suv bor edi. Qo'llarini unga tiqib, yuzlarini ho'lladilar va “Allohdan boshqa iloh yo'q. Va, albatta, o'linning sarxushliklari bor” dedilar. So'ngra qo'llarini qo'yidilar va “Arrofiqul a'lo” deya boshladilar to vafot etgunlarigacha va qo'llari egildi”⁶⁰.

Yuqorida zikr qilingan hadisda shuni aytishimiz mumkinki, Oisha r.a Rosululloh s.a.v ning ko'z qarashlaridan u zot a.s misvokni so'rayotganlarini tushundilar. Payg'ambar a.s boshlari bilan aksariyat xalqlarda ayni mushtarak ma'nonni ifodalaydigan “Ha” harakatini qilganlar. Mana bu kabi tana tili bilan bog'liq holatlar nabaviy hayotda ko'p o'rinlarda rivoyat qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammadsodiq Muhammadyusuf .“Tafsiri Hilol”, “Sharq” nashriyot-matbaasi.Toshkent.2001
2. عرار، مهدي أسعد: البيان بلا لسان، ط1، بيروت، دار الكتب العلمية، 2007م
3. بن الجوزي، عبد الرحمن بن علي : زاد المسير في علم التفسير، بيروت: المكتب الإسلامي، 228/ 3 5 هـ، 1404

مج، تحقيق: عبد الرازق المهدي، دط، دت، بيروت: دار إحياء التراث العربي، 4389/1

البعوي، الحسين بن مسعود الفراء(ت 516هـ): معاً لم التنزيل، 8مج، ط4، المدينة المنورة: دار طيبة، 1997م، 32

58 أحمد، محمد الأمين: الاتصال غير اللفظي في القرآن الكريم، ص4

59 البخاري، كتاب الأدب، باب من لم يواجه الناس بالعتاب، رقم 6102

60 البخاري، صحيح البخاري، كتاب المغازي، باب مرض النبي صلى الله عليه وسلم ووفاته، حديث رقم: 4184 ، 1616/4

4. أحمد ، محمد الأمين: الاتصال غير اللفظي في القرآن الكريم ، ص4
البخاري، كتاب الأدب، باب من لم يواجه الناس بالعتاب، رقم 6102
5. البغوي، الحسين بن مسعود الفراء (ت 516هـ): معالم التنزيل، 8مج، ط4، المدينة المنورة: دار طيبة،
1997م، 3٧2